

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

KASB TA'LIM FAKULTETI

**TASVIRIY SAN`AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI
KAFEDRASI**

«Rangtasvirda maishiy janr va uni takomillashtirish masalalari»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5110800-Tasviriy san`at va
muxandislik grafikasi yo`nalishi bitiruvchisi
4-bosqich talabasi Karimova (Zokirova)
Nilufarxon Dilshod qizi

Rahbar: Tasviriy san`at va
muxandislik grafikasi kafedrası dotsenti
Jabbarov Botirsher G`ulomovich

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning _____-sonli bayonnomasi. " _____ " _____ 2019 yil

Namangan – 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I – bob. Tasviriy san`at tur va janrlari	9
1.1. Tasviriy san`atning o`ziga xos tarixi.....	9
1.2. Tasviriy san`at tur va janrlari.....	22
1.3. Rangtasvir- tasviriy san`atning yetakchi turi.....	25
 II–bob. Rangtasvirda maishiy janr va uni dolzarb masalalari. ...	30
2.1. Maishiy janrning o`ziga xos tomonlari.....	30
2.2. Zamonaviy rangtasvirda maishiy janrni tutgan o`rni	31
2.3. Maishiy janrni takomillashtirish muammolari.....	32
 III-bob. Maishiy janrga oid ijodiy asar yaratish. ..	33
3.1. Mavzu asosida badiiy asar homaki nusxasini ishlash..	33
3.2. Homaki nusxa va qoramalar asosida asar yaratish..	36
3.3. Badiiy asarning o`ziga xos jihatlari..	38
 Xulosa	40
Foydalanilgan adabiyotlar	42
Internet ma`lumotlari	43
Ilovalar	44

Kirish.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Shu sababli, yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida " Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori e'lon qilindi.¹

Buni esa 1997-yilda qabul qilingan " Ta'lim to'g'risidagi " qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning izchil davomi deya e'tirof etishimiz mumkin.

Mamlakatimiz kelajagi bevosita kadrlar tayyorlashga bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni davr talabi darajasiga ko'tarish, jamiyatimizning, har birimizning oldimizdagi eng muhim vazifalardan biri bo'lmog'i lozim. Darhaqiqat, bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki unda harbiy qudrat emas,

¹ "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4306-son . 2019 yil . 3- may.

balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyati bilan kuchlidir. "Kuch-bilim va tafakkurdadir."- degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

2018-yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari tahlil qilindi.

Mazkur tahlil sohada qator muammo hamda kamchiliklar borligini ko'rsatdi.

Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatga ko'ra, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda 2019 yil 1 martga qadar 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida "talabaning o'zlashtirish darajasi-professor-o'qituvchilar faoliyatini baxolashning asosiy mezonini" tamoyilini joriy qilishning aniq mexanizmlarini belgilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi topshirildi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga tadbiq etish, oliy ta'limda bilim olayotgan talaba yoshlar bilim darajasini oshirish, sifatli ta'lim jarayonini ta'minlashga qaratilgan.²

Ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko'taradi, uni taraqqiyotini ta'minlaydi. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2018-yil 25-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi 474-sonli qarori imzolandi. Bu esa yurtimizda san'atga bo'lgan e'tiborning nechog'lik yuksakligidan dalolat.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi

Hozirgi zamon san'ati rivojlanishi, rassomlarning ijodiy izlanishi, yangi mazmunli ijodiy asarlar yaratish ustida izlanishlar olib borishi, dunyoqarashini boyitib borishi va insonlarning ma'naviy-ma'rifiy talablarini qondirishiga bog'liqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi yechimi, murakkab ruhiy holatini topish, rassomdan kundalik hayotdagi go'zallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his-tuyg'ularini sezishni, to'g'ri, chuqur tasavvur etishni talab qiladi.

Rassomlar zimmasiga o'z asarlarida badiiy obrazlarni yaratish, vositalarni boyitish, taraqqiy etgan jahon ilg'or rassomlari tajribalari bilan dunyoqarashlari ko'lamini kengaytirish kabi ma'suliyatlar qo'yilgan.

XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida tasviriy san'atda maishiy janr rivojlanishi muhim hodisa bo'ldi.

O'zbek tasviriy san'atini dastlabki rivojlanishi bosqichida rassomlar asarlarni manzara shaklida tasvirladi. Ularni sharqona hayot, yodgorlik, obidalar, g'ala-g'ovur bozor hayoti, choyxonada hordiq chiqarayotgan rang-barang liboslardagi odamlar qiziqtiradi.

Xalqning yangi turmush-tarzi, qishloq hayoti, paxta dalalaridagi mehnat jarayoni, o'zbek rassomlarining asosiy mavzusi bo'lib qoldi.

Jumladan, ko'rgazmalarda O'.Tansiqboev, A.Toshkenbayev, B.Xamdamiy, L.Abdullaev va A.Roziqovlar qatnasha boshladilar. Yangi nomlar paydo bo'ldi, rassomlar tomonidan asarlarning saviyasi o'sib, ijodlari rivojlana bordi. Rassomlarni ko'p figurali kompozitsion tasvir va rang vositalari qiziqtirdi. Shu tariqa 20-30-yillarda O'zbekistonda maishiy janr shakllanib, rivojlandi. Ana shu davrda Samarqandlik rassom L.Bure, o'zining ijodiy va pedagogik faoliyatini boshladi. Uning dastlabki kompozitsiyalari «Tandir quruvchilar», «Buxoroda Nodir Devonbegi xavuz suv tashuvchilari» bo'lsa, 1930-yillarda «Maktab qurilishi», «Paxta terimi» kabi asarlar yaratdi. Sxematik chizgi tasvirlarda nuqsonlar mavjud, lekin taxminiy ranglar ifodasi kartinani hayotiy etib ko'rsatadi.

O'zbekiston tasviriy san'ati hozirgi bosqichda "professionalizm"- mahorat jihatidan o'zining yuqori mavqeiga ega bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalar va yosh rassomlarga maishiy janr va uning rivojlanish tarixi haqida kerakli ilmiy ma'lumotlarni, hamda, amaliy ko'nikmalarni berish maqsadida bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Rangtasvirda maishiy janr va uni takomillashtirish masalalari”** – deb belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishimizda maishiy janr va uning tarixi, uning o'ziga xos tomonlari haqidagi tajribalarni to'plash va ular asosida uni takomillashtirish yuzasidan zaruriy ilmiy ma'lumotlarni yosh rassomlarga yetkazish **m a v z u n i n g d o l z a r b l i g i** ni tashkil qiladi.

Ishimizning **i l m i y y a n g i l i g i** esa biz tanlagan mavzu bo'yicha olib borilayotgan ilk tadqiqot ishini olib borganimizda hamda maishiy janr va uni o'ziga xos tomonlari va muammolarini atroflicha taxlil qilib, o'quvchi- yoshlar uchun kerakli tavsiyalarni ishlab chiqqanimizda o'z aksini topadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning **a m a l i y a h a m i y a t i** esa mavzu materiali asosida talaba-yoshlarga tasviriy san'at sirlarini egallashlari yo'lida maishiy janr va uning yetuk vakillari tomonidan yaratilayotgan badiiy asarlarini o'rganib taxlil qilishimizda, hamda ular asosida kerakli bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqqanimizda namoyon bo'ladi.

Malakaviy i s h i m i z n i n g m e t o d o l o g i k a s o s i ni mustaqil O'zbekiston ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi davlat xujjatlari, rangtasvir, tasviriy san'at tarixi va rangshunoslik o'quv predmetilari , ijodiy asarlar, rassomlarning kundalik va esdaliklari, gazeta, jurnal materiallari tashkil qiladi.

Mavzuni ilmiy taxlil qilib, chuqur ochib berish uchun biz o'z oldimizga quyidagi **m a q s a d v a v a z i f a l a r n i** belgilab oldik:

- Tasviriy san'atning o'ziga xos tarixini o'rganish;
- Tasviriy san'at tur va janrlarini taxlil qilish;
- Rangtasvir tasviriy san'atning yetakchi turi ekanligini bilish;
- Maishiy janrning o'ziga xos tomonlarini o'rganish;

- Zamonaviy rangtasvirda maishiy janrni tutgan o`rnini aniqlash;
- Maishiy janrni takomillashtirish muammolari haqida fikr yuritish;
- Mavzu asosida badiiy asar homaki nusxasini ishlash;
- Homaki nusxa va qoralamalar asosida asar yaratish;
- Badiiy asarning o`ziga xos jihatlari ustida ishlash.

I – bob. Tasviriy san`at tur va janrlari

1.1. Tasviriy san`atning o`ziga xos tarixi

Jahon san`ati va madaniyatining rivojlanishi o`zining qadimiy tarixiga ega. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, O`rta Osiyo va O`zbekiston xalqlarini o`tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob'yektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san`ati o`z shaklini topmay qolgan edi.

XIX asr 60-yillari O`rta Osiyoga, Rus ilg`or realistik san`ati o`z ta`sirini ko`rsata boshladi. Tashrif buyurgan rassomlar o`z asarlarida oddiy xalq va tabiatni tasvirladilar .

Turkistonda birinchi bo`lib ijod qilgan rassomlar ichida "Turkiston turkumi" suratlarini yaratgan ijodkor Vasiliy Vasilevich Vereshagin hayotni kuzatuvchisi sifatida etnografik hayot tarzini chuqur o`rganib, etyud va eskizlar bajarish natijasida har xil mavzuda asarlar yaratdi. Uning "Balog`atga yetmagan bola savdosi", "Zindon", "Nashavandlar" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Uning tarixiy janrda yaratgan eng katta asari "Tantana qilmoqdalar", deb nomlanadi. Registon maydonida bo`lib o`tayotgan bu marosimda Mustaqillikka qarshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan g`alaba tantanasi o`z ifodasini topgan.

Kompozisiya jihatidan ko`p figurali, ko`p planli bu asarda oddiy fuqaro, darveshlar, otda yuzboshi sarbozlar, ularni bo`lib o`tayotgan tantanaga psixologik munosobatlari, milliy liboslari aks etgan quyoshning yorug` shu`lasida Samarqand tabiati iliq gammada tasvirlab berilgan.

O`zbekiston zamonaviy realistlik tasviriy san`atiga asosan XX asr boshlarida O`zbekistonga kelgan rus rassomlari tomonidan asos solindi. Birinchilar qatorida Mixail Ivanovich Kruzin, Lev Leonardovich Bure, Ivan Semyonovich Kazakov, Abduqodir Yusupov, Nikolay Ryazanov kabi rassomlarni aytish mumkin.

1918-yili Samarqandda, 1919 yilda Toshkentda Turkiston O`lka rassomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida Aleksandr Nikolayevich Volkov yoshlarga dars berdi. Samarqandda esa Oganess Tatevostyan rahbarlik qildi.

Oganes Tatevostyan rassom sifatida 20-yillarda tanildi. U o'zini manzara, natryumort, portret, maishiy janrlarda sinab ko'radi va asarlarida sharqni o'ziga talqin qildi.

Keyinchalik u natyurmort ustasi professor sifatida tanildi va 1954-57 yillarda yosh rassomlarga dars berdi.

Rus demokrat rassomlardan Ilya Efimovich Repinning shogirdi N.Rozanov 1924 yili san'at muzeyi qoshida birinchi bo'lib tasviriy san'at studiyasini tashkil etdi. Bu milliy studiyada o'zbek rassomlari X.Valiyev, Z.Saidnosirov, A.Toshkenboyev, O'rol Tansiqboyev va boshqalar birinchi bo'lib saboq olishdi.

Nikolay Rozanov kabi Ivan Kazakov ham rus realistik san'atini asoslarini yoshlarga o'rgatdi.

Realistik san'at bilan bir qatorda Petrov-Vodkin, Nikolay Kuznesov, Aleksandr Volkov kabi bir necha rassomlar formalistik yo'nalishga burilib ketdilar.

Bu yo'nalishni amalga oshirganlardan biri Aleksandr Volkovdir. Uning "Anorli choyxona", "Karvon", "Sandal oldidagi o'yinchi" kabi asarlari 1924-yil Toshkentda, Moskvada shaxsiy ko'rgazmalarida namoyish etildi.

Jamoatchilik tomonidan tanqidga uchragandan keyin realistik yo'nalish qaror topdi. Volkov "Anorli choyxona" asaridan keyin ijodida burilish yasadi.

U o'z esdaliklarida realizm yo'li inson obrazini yaratishda to'g'ri yo'lligini ta'kidladi.

Avtoportret, Rafiqasi portreti, "Kolxozchi", "Paxta terimi", "Bayram" asarlarida realizm yo'li namoyon bo'ldi.

Aleksandr Volkov bahor marosimlari - sayl, lola terish, to'y, hosil bayramlarini quvonchli ranglarda ifodaladi.

"Karvon" asarida tuyani uchburchak shaklidagi ayol va bosh harakati arra g'ildiraklarini g'ildirash tovushlari bilan bog'lanib, bir rang spektri kompozitsiyasiga aylangan "Uchta so'zana" asarida shartli geometrik figura qizil, ko'k, oxra, sariq rangli shakllarni bir-biriga tutashishi musiqa ohanglarini eslatadi.

Shu davrda portret va tarixiy mavzuda O'rol Tansiqboyev, Usta Mo'min (Nikolayev), Vladimir Ufimsev, Mixail Arinin kabi rassomlar ijod qilishdi.

Keyinchalik, 1960- yildan boshlab O'rol Tansiqboyev ijodida manzara janri gullab rivojlandi. U o'ziga xos usulda manzara kompozisiya maktabini yaratdi. Uning "Issiq ko'l", "Ona o'lka", "Tog'da kuz" kabi ko'plab asarlari san'at muzeyining oltin fondidan joy olgan.

Peterburg Badiiy akademiyasida ta'lim olgan Pavel Petrovich Benkov 1928-yili birinchi marta O'zbekistonga keldi. Bu diyor o'zini betakror go'zalligi bilan uni o'ziga maftun etgan edi.

Shu vaqtda u Buxoroda bo'lib, "Buxoro bozori", "Chor minor masjidi", "Xovuz labidagi choyxona", "Uzum bozori", "Usti yopiq bozor" kabi manzaralarni yaratdi.

Rassom 1930 yili Xiva, keyin Samarqandga keldi. Bu ajoyib o'lkani tabiati, hayoti, odamlari yangi ijodga ilhomlantirdi. Tez orada u qozon shahridan Samarqandga ko'chib kelib ijodini ikkinchi yangi bosqichini boshladi.

Rassom shahar tor ko'chalarini kezib, machit-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin-suron, savdo-sotiq bilan band, ranglariga boy libosdagi odamlar hayotini erinmay soatlab kuzatdi. Ularni quyosh nurida toblangan chehralarini mashaqqatli mehnat evaziga yetishtirilgan meva, noz-ne'matlarning rang-barangligi uning ko'zini qamashtirdi, yangi ijodga ilhom bag'ishladi.

U ilk bor "Xivali qiz" suratini yaratdi. Peshin payti, charog'on quyosh nuriga g'arq cho'milgan Xiva hovlilarining birida o'smir qiz charx yigirib o'tiribdi.

Uning egnida guldor ko'ylak, boshida chiroyli do'ppisi. Ko'zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo'llarining harakati, uning berilib ishlayotganidan dalolat berib turibdi. Surat bo'yoqlarining yorqinligi, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur his etamiz..

Bu asarni o'zbek tasviriy san'atida birinchi realistik ijod namunasi deyish mumkin. O'z paytida u Tretyakov davlat gallereyasining doimiy ekspozitsiyasidan o'rin olgan edi.

Rassom 30-yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chizgilar sifatida badiiy materiallar to'pladi.

Uning "Hujum" nomli pillakashlik fabrikasi, "Registonda 8 mart" polotlonalari shular jumlasidandir. U o'z ustozlari Dmitriy Nikolayevich Kardovskiy, Ilya Repindan o'rgangan hayotni chuqur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish an'analarini davom ettirib o'ziga xos ranglar "palitra"sini yaratdi. "Uzum uzish" yoki "Dugonalar" kartinasida ko'p millatli vatanimizda xalqlar do'stligi g'oyasi obrazi ochib berilgan. Janubning sahiy quyoshi, go'zal farovon turmushi asar kompozitsiyasida mohirona aks ettirilgan.

Qalin novda va barglari orasidan tushgan quyosh nurlaridan pishib yetilgan uzum bog'lari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri o'zbek, ikkinchisi rus qizi, ular kompozitsiya ma'naviy markazini tashkil etadi.

Asarning personajlari, zavq bilan tomosha qilayotgan, qizlar ham, bolalar ham keksa bog'bon ham bir oila a'zolaridek ko'rinadi.

Tasvir yorqin bo'yoqlarda ishlangan, unda havo ko'p bo'lib, serquyosh O'zbekistonning go'zal tabiati juda nafis ranglarda aks ettirilgan.

Pavel Benkov, hayotni ko'p ko'rgan, yoshi ulug' odamlar suratini chizishni yoqtirardi. Uning eng yaxshi yaratilgan asarlaridan biri "Ilg'or kolxozchi portreti" edi. Unda sochlariga oq oralagan, mehnatdan chiniquqan insonning obrazi aks ettirilgan.

Portret iliq gammada ishlangan bo'lib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarqandda o'tgan hayoti tematik kompozitsiyalar, maishiy kartina va portretlarga boy bo'ldi. Lekin manzara ishlashni ham kanda qilmas edi.

U o'zining 20 yillik ijodida "Bibixonimda bahor", "Bahor", "Shaftoli gulladi", "Tokzorli hovli", "Kuzdagi hovli" kabi manzaralarini yaratdi. Biz yuqorida ko'rib chiqqan asarlardan Pavel Benkovning naqadar kuchli rassom bo'lganligiga iqrar bo'lishimiz mumkin.

Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog'langan. U Samarqand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha yoshlarga saboq berdi, tasviriy san'at sirlarini o'rgatdi. U ajoyib ijodkor yoshlarni tarbiyaladi.

Shular orasida O'zbekiston xalq rassomlari Lutfulla Abdullayev, Malik Nabiyeu, Abdulxaq Abdullayev, Zinaida Kovaleskaya, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arboblari - rassomlar Yusuf Yelizarov, Rashid Temurov va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagogik mahoratining siri, yuqori darajali qobiliyati, chuqur bilimida, yoshlarga bo'lgan mehrida edi. U o'z o'quvchilariga kundalik hayotni sevisht uni go'zalligini ko'ra bilish va bu go'zallikni o'z asarlarida aks ettirishni uqtirar edi. Naturani to'g'ri anglab chizishni, fikr yurgizishni, xotiradan chizish, tasavvurini kuchaytirishni doim talab qilar edi. Muntazam ravishda naturadan soya-yorug' ranglarini o'zgarishini chizib ko'rsatar edi.

Benkov yoshlarda san'atga bo'lgan ijodiy qobiliyatini uyg'otish kabi muhim qimmatli fazilatlariga ega edi. Samarqandda rassomchilik bilim yurti shakllanishida Benkov o'z tajriba, bilimni ayamadi.

1936 yili Leningraddagi sobiq ittifoq ko'rgazmasida Benkov va uning o'quvchilarining ijodi namunalari yuqori baholar oldi.

Bu ajoyib inson, o'z asarlari kabi yorug', sahovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini Bahrom Xamdamiy, bilim yurtlarini A.Toshkenboyev, L.Abdullayev, A.Roziqovalar, Moskva, Leningrad, Penza bilim yurtlarini I.Ikromov, A.Siddiqiy, O'rol Tansiqboyevlar tamomlab ijodga yo'llanma oldilar.

Ularning ijodiy mahorati Siddiqiyning "To'y (1932)", Bahrom Xamdamiyning, L.Abdullayevning "Paxta terimi (1931)", Roziqovning "Maktabga(1932)" asarlarida namoyon bo'ldi.

Akram Siddiqiyning "To'y" kartinasi katta gulli so'zana fonida kontrast ranglarda, kompozitsiya tuzilishi amaliy san'at yo'lida tasvirlangan. U o'zbek xalq amaliy san'atini yaxshi o'rgangan edi. Realistik san'at yo'lidagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy hayotida muhim voqea bo'ldi.

Ijodiy izlanishi Akram Siddiqiyga yaqin bo'lgan O'rol Tansiqboyev yorqin ranglar tizimida "Choyxona" (1934) kartinasi yaratdi. Bahrom Hamdamiyning tengdoshi rassom A.Toshkenboyev mehnat, kundalik hayot voqealari mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934-yili ularni yaratgan kompozitsiya asarlari ko'rgazmada yaxshi

baholandi. Pavel Benkov bilan Samarqand rassomchilik maktabida yoshlarga dars bergan Zinaida Kovalevskaya "Teatr lojasida" nomli ajoyib asarini yaratdi. Teatr loyihasida o'tirgan o'zbek qizlarni nigohlarida hayajon, go'zallik his tuyg'ularini ko'ramiz.

Orqada e'tibor bilan kuzatayotgan keksa erkak va ayolni xotirjam qarashlari, qo'l harakatlari lirik holatini ko'rish mumkin .

Rang tasvir kompozitsiya jihatidan o'ziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. Pavel Benkov, Aleksandr Volkov qo'lida o'qigan Bahrom Xamdamiy, A.Toshkenboyev, A.Roziqovlar o'z ustozlarini yaxshi an'alarini davom ettirdilar, mazmun g'oyalarini kengaytirdilar. Ayniqsa, Samarqand rassomchilik bilim yurtini bitirgan Lutfulla Abdullayev dastlabki "Paxta terimi" kartinasi bilan tomoshanbin va san'atshunoslar fikrini qaratgan bo'lsa, keyinchalik yetuk rassom sifatida murakkab kompozitsiya asarlarini yaratdi. Ayniqsa, "Yosh shoir huzurida" kartinasida kompozitsiya ustasi ekanligini isbotladi.

Yigit va qizlar yosh shoirning she'rlarini eshitmoqda. Zamonaviy xonada shoir gavdasining aniq tasviri kompozitsiya markazini tashkil etdi. Shoir qo'lini ko'tarib tantanali hayajon bilan she'r misralarini o'qimoqda. Yoshlarning bilimga chanqoqligi, mehnatga mehr bilan intilishi ifodalangan.

Uning "Mulla To'ychi Toshmuxamedov" portreti, "Frontdan qaytish", "Qo'riq yer ochuvchilar", Malik Nabiyeu, S.Muxamedov, X.Raxmonovlar bilan hamkorlikda yaratilgan "poyafzalchi Ubay Raxmatullayev brigadasi" asari eng yaxshi san'ati asari sifatida O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib o'tilgan rassomlar 50-yillarda Toshkentdagi Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga dars berdilar, rasm chizish va kompozitsiya asari yaratishni o'rgatadilar .

1.2. Tasviriy san'at tur va janrlari

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik

hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san`at va san`atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. Tasviriy san`at esa o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san`at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da`vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo`lib qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, hayot to`g`risidagi fikr-o`ylarini aks ettiruvchi ko`zgu hamdir. Jahon san`ati tarixini o`rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o`tmish odamlarning his-tuyg`u, hayotiy tajribalarini o`rganish g`oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so`zsiz kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.

Tasviriy san`at turlariga rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san`atning eng muhim turlaridan bo`lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san`at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o`rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko`ra monumental, dekorativ, mo`jaz, dastgohli turlarga bo`linadi.

Monumental rangtasvir me`morchilik bilan bog`liq bo`lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo`llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko`rishga

mo`ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo`jaz san`at asarlari turli mamlakatlarda, shu jumladan, O`zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo`lyozmalarga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo`la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo`lib, maxsus matolar, karton, yog`och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo`yoq, guash, suvbo`yoq, tempera bo`yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o`rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so`zidan olingan bo`lib, «yozaman», «chizaman» degan ma`noni anglatadi. Tasviriy san`atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko`mir, pastel, sangina, suvbo`yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hakozolar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san`at turlaridan biri. U lotincha «skulpo» so`zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o`yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma`nosini anglatadi. Tasviriy san`at zamonlar osha rassomlar ijodiy izlanishlari orqali sayqal topib bormoqda. Bunda har bir ijodkor o`z dunyoqarashi va istaklaridan kelib chiqqan holda turli janrlarda ijod qilib kelmoqdalar.

Portret – rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo`lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi.

Portret janrida ishlangan tasviriy san`at asarlari bizga musavvir Yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, musavvir o`zining tashqi qiyofasini o`zi tasvirlaydi.

Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko`rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni tog`u-toshlarni

tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar.

Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning «O'zbekistonda mart», «Jonajon o'lka», «Mening qo'shig'im», N. Kashinaning «Tog'da bahor», Z. Inog'omovning «Arpa o'rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug'bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort – fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llanadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata oladi.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – «botal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B. Grekov, G.K.Saviskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir.

Animalistik – janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha «anima», «hayvonot olami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida kata ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlariga kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan.

XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A. Vatagin o`zining asarlarida to`rt oyoqli do`stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Mashg`ulot rahbari o`quvchilarga nazariy bilim berish jarayonida mazmuniy to`liq ochib berishi uchun jonli nutq orqali so`zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat – lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Maishiy janr. tasviriy san`atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o`zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari-Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo`ladi.

Realistik rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V. Makovskiy, K.Saviskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo`shdilar. O`zbek rassomlaridan R. Ahmedov, M. Saidov, Z.Inog`omov, R. Choriyev, G`. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar.

1.3. Rangtasvir tasviriy san`atning yetakchi turi

Rangtasvir-tasviriy san`at turlaridan biri. Biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, bo`yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar. Rangtasvir voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish, tomoshabin fikri va tuyg`ulariga ta`sir etishning muhim vositasi, muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g`oyaviy vazifalarga ega.

Rangtasvir asarining g`oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi, syujetni rassom rangtasvirning ifoda vositalari (kompozitsiya, rasm, rang , ritm va h.k.) orqali ro`yobga chiqaradi. Rangtasvir asarlari asos (maxsus ishlov berilgan mato, yog`och, qog`oz, karton, shisha, metall va h.k.), rang qatlami (moybo`yoq, guash, tempera, akvarel, rangli shisha, rangli tosh va h.k.), ayrim hollarda uni saqlash uchun ustidan berilgan yupqa lok qatlamidan iborat bo`ladi. Rangtasvirning muhim tasviriy va ta`sir vositasi-rang (kolorit). Rang orqali rassom borliq yoki xayoliy dunyoni ko`rinarli shakllarda tasvirlaydi,

makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'yxayollarni aks ettirishi mumkin. Rangtasvirning tasviri ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang, qurollar xususiyati, rang eritgichlari, asosiga bog'liq (yuzasi silliq yoki g'adibudir berilishiga qarab asar ko'rinishi turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin). Asar dastlab ijodkor tasavvuri va ongida paydo bo'lgan g'oya qoralamasi tarzida qalam yoki ko'mirqalamda biror yuza (ko'pincha qog'oz va karton)da ishlab olinadi. So'ng shunga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishning mohiyatiga ko'ra ishlov beriladi. Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab rasmi ishlanadi. Rang berishda esa asta suyultirilgan rang bilan boshlab ko'p qatlamli (lessirovka) yoki kerak rangni bir qo'yishda bir qatlamli (alla prima) bajarish mumkin. Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki -yassi va hajmli-fazoviy uslubga ajratish mumkin. Birinchi uslubda tasvir nursoyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi, hajmli fazoviy usulda esa tasvir hajmli nursoya yordamida muhit bilan bog'liq hodda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishi (refleks)ni ko'rish mumkin. Rangtasvir asarlarida bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisini to'ldiradi. Rangtasvir asarlari o'zining ishlanish o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rinishiga qarab monumental (monumental sanat, monumental rangtasvir), bezak (bezak san'ati, bezash san'ati), dastgoh san'ati, dekoratsiya (teatr va kino dekoratsiyasi), miniatyura va boshqalarga bo'linadi. Tasvir mavzui va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga ajraladi: animalistika, tarixiy janr, maishiy janr, batal janri, portret, manzara, natyurmort va boshqalar.

Rangtasvir qadimda so'nggi paleolit (miloddan avvalgi 40-8 ming yilliklar)da paydo bo'lgan. Janubiy Fransiya (Fon de Gom, Lasko), Shimoliy Ispaniya (Altamira), O'rta Osiyo va boshqa yerlarda rangtasvir asarlari saqlanib qolgan. Soz tuproqli bo'yoqlar, qorakuya, pista kumir bilan ishlangan, rasmlar tekis sharpa sifat (siluet), ba'zilarida esa hajmli kilib ishlashga harakat qilinganligi seziladi. Mezolit

va neolit davrida bajarilgan ibtidoiy rasmlarda murakkab kompozitsiyalar, abstrakt tushunchalar paydo bo'la boshlagan. Quldorlik davrida rivojlangan texnik vositalarga boy obrazlar tizimi shakllandi. Qadimiy Sharq mamlakatlari (Misr, Hindiston, O'rta Osiyo), jan.sharqiy Yevropa (Yunoniston, Italiya), shuningdek, Amerika qit'asi (Markaziy Amerika)da monumental rangtasvir rivojlandi. Maqbara ibodatxona, saroy va boy zodagonlarning uylari devorlariga turli mavzu va yo'nalishda asarlar ishlandi.

Antik davrda me'morlik va haykaltaroshlik bilan uyg'unlashgan rangtasvir diniy mazmun bilan bir qatorda oliy tavaqa maqsadlarita tavmat qildi, nursoya, chiziq va havo perspektivasi yuzaga keldi, maishiy va tarixiy lavhalar, manzara, portret, natyurmortlar yaratildi. Miloddan avvalgi 5-asrda Yunonistonda mum rassomligi (enkaustika)dagi dastgoh rassomligi haqida fayyum portretlari tasavvur beradi. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida monumental rangtasvir san'ati o'zining haqiqiy gullashdavrini boshidan kechirdi. Hindiston (Ajanta), O'rta Osiyo (Tuproqqal'a, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa) va boshqalarda nozik bo'yoqlar, nafis bezak ritmi, hayotiy kuzatishlarning yorqinligi xos bo'lgan miniatyura san'ati rivojlandi, Xitoy, Yaponiya, Koreyada shoyi va qog'ozga tush, akvarel va guash bo'yog'ida racm ishlash sohasida yuqori cho'qqilarga erishdi. Uyg'onish davrida rangtasvirning yangi qirralari yuzaga keldi, ilmiy asosga tayangan realistik san'at kamol topdi va jahon san'ati rivojida muhim o'rinni egalladi, ifoda tizimi hamda uning ilmiy asosi yaratildi. Perspektiva, optika, plastik anatomiya borasida yutuqlarga erishildi, monumental rangtasvir yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, g'oyaviy boyidi, dastgoh rangtasviri ijtimoiy hayotga keng ko'lamda kirib bordi. Texnikada suv bo'yog' o'rnini moybo'yog' egallay boshladi, lessirovka, valyor uslubiga qiziqish ortdi, lok-moybo'yog' texnikasi murakkablashdi, ko'p qatlamli rangtasvir rivojlandi. Faktura masalalarida ham izlanishlar olib borildi, oq qoplamli (grunt) asosga silliq rangli qoplama asosga quyuq rang surtmalari (pastoz uslubi) bilan ishlashga e'tibor ortdi. 17-18-asrlarda Yevropa (Fransiya, Italiya, Ispaniya, Flandriya, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Rossiya va boshqalar)da milliy rangtasvir maktablari shakllandi, hayotni haqqoniy inqilobiy taraqqiyotda aks

ettirish, inson ruhiy olamidagi nozik o'zgarishlarni, inson va jamiyat muammolarini ishonarli talqin etish muhim o'rinni egalladi. Rangtasvir janrlari kengaydi, monumental rangtasvir bilan dastgoh san'ati keng rivoj topdi, uslubiy yo'nalishlari ko'paydi, tonal rangtasvir yanada mukammallashdi. Pastel, akvarelga qiziqish ortdi. Yevropa san'ati (ayniqsa, dastgoh rangtasvir)ning jahon xalqlari, jumladan, Sharq mamlakatlari san'atiga ta'siri sezilarli bo'ldi. 19-asrda rangtasvir dunyoqarash bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etishga harakat qilib ijtimoiy hayotda muhim urinni egalladi, ijtimoiy hayotdagi mavjud illatlar o'tkir tanqid ostiga olindi, 19-asr mobaynida akademizmga asoslangan xayotdan uzoq, ideallashtirilgan obraz va qahramonlarni targ'ib qiluvchi asarlar maqtaldi, naturalizm an'analari shakllandi. Quruq, hayotdan uzoq so'nggi klassitsizm va salon akademizmga qarshi kurashda davrning murakkab, fojiali voqealariga bag'ishlangan shijoatli, ta'sirchan, nursoya nisbatlari keskin olingan, to'yingan, rangdor koloritli romantizm uslubi paydo bo'lib rivojlandi (Fransiyada - P.Jeriko, E.Delakrua, Germaniyada - F.O.Runge, K.D.Fridrix, Rossiyada O.A.Kiprenskiy, K.P.Bryullov va boshqalar), hayotni o'ziga o'xshatib ishlash uslubiga asoslangan realistik rangtasvir bu davrda yanada chuqurlashdi. Endilikda tasvirni nafaqat haqqoniy bo'lishiga, balki hayotni kuzatish asosida paydo bo'lgan kechinma va taassurotlarni, xayol va o'ylarni ham ifodalashga harakat kuchaydi. Borliqning o'zidan kartina yaratish, nur, havo, kenglik ranglar tuslanishi va birbirining rangiga ta'sir etish xususiyatlarini ham ishonarli ranglarda tasvirlashga intilish kengayib bordi (Angliyada - J.Konstabl, Fransiyada - K.Koro, O. Domye, Rossiyada - A.G.Venetsianov va boshqalar). Yevropada inqilob va milliy ozodlik harakati kuchaygan davrda demokratik realizm rivojlandi, xalq hayoti, ularning kurashlari ko'rsatildi, milliy tarix va zamonaning muhim voqealarini aks ettiruvchi kompozitsiyalar, jamiyatning jasur va ilg'or kishilarining siymolari yaratildi. Rus inqilobiy demokratik estetikasi bilan bog'liq ijtimoiy tankdsiy realizm rivojlandi. Peredvijniklar va ularga yaqin ijodkorlar (V. Perov, I.Kramskoy, I. Repin, V.Surikov va boshqalar) shu jarayonda faol o'rinni egalladilar. XIX asr 70-yillaridan rassomlar palitrasi toza spektr ranglari bilan boyidi, rassomlar ochiq

havoda rasm ishlashni odat qila boshladilar. Bu borada impressionist rassomlar (K.Mone, K.Pissaro, A.Sisley va boshqalar) alohida o'rinni egalladilar. Ular rangtasvir yuzasini tashkil etishda o'ziga xos yo'l tutib an'anaviy silliq fakturadan va shakllarning tugal chizikli yechimidan voz kechish, ishlash uslubini yangilanishiga, toza spektr ranglarning erkin surtmalaridan foydalanib asar yaratishga erishdilar. Bu harakat keyinroq haykaltaroshlik, grafika, me'morlik, musiqa, adabiyot va boshqa san'at turlariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi (qarang Impressionizm). 19-asrda moybo'yoq rangtasviri yetakchi o'rinni egalladi, bunga uning texnikasi, shu davrda sanoatda ishlab chiqarilayotgan yangi bo'yoqlarning keng ko'lamda hayotga kirib kelishi bilan bog'liq edi. 19-asr rangtasvirning yelim va moybo'yoq bilan asar yaratish usuli inqirozga tusha boshladi. 19-asr oxiri 20-asr boshlarida shu san'atni qayta tiklash harakati boshlandi, uning yangi qirralari ochila boshlandi, san'atning bezak tomoniga e'tibor ortdi, me'morlik, tasviriy va amaliy san'atlar uyg'unligida yagona majmua yaratish ishtiyoqi shu davrda paydo bo'lgan modern uslubida namoyon bo'ldi. Bu davrda avangard yo'nalishi realistik rangtasvirga kuchli raqobatda bo'ldi.

Sharq va G'arb to'qnashuvi natijasida XX asr rangtasviri shakllandi, realistik san'atga raqobatda avangard san'ati rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalish tarafdorlari ijodkor sub'yektiv kechinmalari, histuyg'ularini hayotiy, borliq shakllarida tasvirlashdan ko'ra o'zlarining xayollaridagi shakl va ko'rinishlar, harakatlari natijasida paydo bo'lgan shakl va chizikdarni tasvirlashni ma'qul ko'radilar.

Avangard oqimlarining rivojlanishi natijasida borliqni tasvirlashdan umuman voz kechilib tasvir vositalari ham o'zgara boshladi (abstrakt san'at). XX asr 60-yillar o'rtalaridan esa ayrim Yevropa va Amerika rangtasvirida avangard san'ati - popartning unsuriga aylanib bordi. Bugungi kunda ushbu raqobat rivojlanib avangard tarafdorlari ortib bormoqda.

O'zbekistonda rangtasvir san'ati qadimdan mavjud bo'lgan. Uning ilk namunalari ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi (qarang Ibtidoiy san'at, Zarautsoy rasmlari). Miloddan avvalgi 1ming yillikning oxiri va milodiy 1ming yillik boshlarida rangtasvir o'zining gullagan davrini boshidan kechirgan

(Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Tuproqqal'a va boshqalardagi devoriy rasmlar). Bu davrlar rangtasviri yassi bezak yo'nalishida mahalliy (lokal) ranglarda bajarilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida monumental rangtasvir (devoriy rassomlik, mozaika) bilan birga miniatyura san'ati rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahqib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalarning asarlari dunyoga keldi. XIX-asr o'rtalaridan boshlab Turkistonda dastgoh san'ati shakllana boshladi va XX asrda o'zbek milliy rangtasvir maktabi yaratildi. Rangtasvirning hamma tur va janrlarida asarlar yaratildi, miniatyura, vitraj san'ati qayta tiklandi. Bugungi kunda o'zbek rangtasvir san'ati jahon hamjamiyati bilan bir qatorda rivojlanmoqda, uning g'oyaviy plastik rivoji ustida rassomlar izlanmoqda, mehnat qilmoqda.

II–bob. Rangtasvirda maishiy janr va uni dolzarb masalalari.

2.1. Maishiy janrning o`ziga xos tomonlari

Maishiy janr-tasviriy san'atning kundalik ijtimoiy va shaxsiy hayotni, maishiy turmushni aks ettiradigan janri. Turmushda ko'zga tashlanadigan o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni, uning ichki mohiyati va ijtimoiy-tarixiy mazmunini chuqur ochib berish kabi xususiyatlarga ega. Demokratik va realistik badiiy an'analarning o'sishi, rassomlarning xalq hayoti va mehnat faoliyatini atroflicha tasvirlashga qiziqishining ortishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Maishiy janrda rangtasvir (kartina) yetakchi o'rin tutadi, grafika, kichik hajmdagi haykaltaroshlikda ham maishiy mavzu keng tarqalgan.

Maishiy lavhalar ibtidoiy san'at (ov manzaralari, urf-odatlar tasvirlari), Sharq (devoriy rasmlar va relyeflar) va Yunon (vazalar bezagi) san'atida ko'p uchraydi, ellinizm san'atida muhim o'rin egallagan. Dastlabki namunalari Qadimiy Sharq (Xitoy, key-inroq Koreya, Yaponiya)da yaratilli. Uyg'onish davrida maishiy janr real voqealar, maishiy detallar bilan boyitildi. O'rta asrlarda ham Yevropa, ham Osiyoda devoriy rasmlar, bo'rtma naqshlar, miniatyuralar keng tarqaldi. Sharqda va Yevropada san'atning maxsus janri sifatida namoyon bo'ldi.

Maishiy janrda XVII asrdan maishiy hayot ijtimoiy mazmunga ega bo'ldi, hajviy, ijtimoiy tanqidiy yo'nalish yuzaga keldi, emotsional nafislik, psixologik noziklik va o'tkir xayotiy kuzatishlar o'z aksini topdi. Jahon rassomlari Jotto, Rembrandt, U.Xogart, A.Vatto, F.Goyya, P.P.Rubens, V.G.Perov, I.Ye.Repin, V.Ye.Makovskiy, A.A.Deyneka kabilarning maishiy janrdagi yetuk san'at asarlari mashhur.

O'zbekiston hududida maishiy janr devoriy rasmlarda va miniatyuralarda o'z ifodasini topgan. XX asrda rassomlardan B.Hamdamiy, L.Abdullayev, Inog'omov, M.Saidov va boshqalar, amaliy san'at ustalaridan A.Muxtorov, Sh.Mo'minova va boshqalar maishiy mavzuda asarlar yaratdilar.

Maishiy janrda ko'plab asarlar yaratgan rassom Nadejda Kashinadir. Uning "Doira chalayotgan qiz" (1945), "Tushki tanaffus" asarida insonni mehnat bilan

barhayotligi, uni toza havo oftob nurlaridan tabiatdan zavqlanayotgani o'z aksini topgan .

Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruhda , insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiya tuzish vositalarida namoyon bo'lgan. Yoshlarga metodik tasviya vazifasini bajaradi.

1947 yili Chingiz Axmarov, Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teartri binosi foyesi devoriga A.Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" asariga bag'ishlangan mahobatli rang tasvir asarini ishladi . Asosiy mavzu afsona yoki bo'lib o'tgan voqealar bo'lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o'xshashligi, murakkab kompozitsiya yechimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar hajmsiz aniq chizgilar va yengil nozik ranglar tusida tasvirlangan .

"Monumental" panno mavzusida, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Yetti sayyora" , "Iskandarnoma", "Layli va Majnun" ning poemasi asosida "Farhod va Shirinni, Layli va Majmunni uchrashuvi, Baxrom - go'r va Dilorom ", "Iskandarning to'g'on qurilishini kelib - ko'rishi" kompozitsiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaklari bilan Farhodga nigoh tashlab uni qilgan jasoratiga ta'zim qilayotgan vaqti ifodalangan. Asarning muvafaqqiyatli chiqishida rassomning Alisher Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o'rganganligi katta yordam bergan. Bu asar uchun Chingiz Axmarov 1948-yili "Davlat mukofoti"ga sazovor bo'lgan edi.

50-yillarda rassom Moskva, Kozon , Dnepropetrovsk, Kemerevo shaharlarida asosan mahobatli -devoriy asarlar ustida ishladi. 1961-yildan boshlab Chingiz Axmarov yana O'zbekistonda ijod qila boshladi. "A'lochi qiz", "Rahima", "Balerina", " Rassom Temurov portreti", "Mukarrama Turg'unboyeva", "Zulfiya " kabi portretlari yaratdi.

Ayniqsa shoir "Zulfiya portreti"da nozik chizgilar bilan gavda va qo'l holati, liboslar o'ziga xos go'zal holatda ifodalagan.

Shoirning samimiyligi, yoqimtoy nigohi chuqur poetik ijod sohibi ekanligi sezilib turadi. Chingiz Axmarov zamonaviy o'zbek ayolini ziyo tarqatuvchi

ma'naviy boyligini, ichki go'zaligi ochib bergan. Chingiz Axmarov ko'p yillar davomida Kamoliddin Behzod nomli Toshkent milliy rassomchilik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo'lib ishladi.

Ko'plab o'zbek "monu-mental"chi rassomlarni yetishtirib chiqardi va o'ziga xos mahobatli kompozisiya san'ati maktabini yaratdi. 1953- yili Repin nomidagi Leningrad badiiy akademiyasi institutini Rahim Axmedov, Ne'mat Qo'ziboyev, T.Oganesov, M.Saidov, V.Zelikov, Muxina nomidagi oliy san'at bilim yurtini V.Jmakin , V.Sosedovlar, Vasiliy Surikov nomidagi Moskva rassomchilik institutini Yusuf Yelizarovlar tamomlab yangi kuch va ishtiyoq bilan san'at olamiga kirib kelishdi. Ijod bilan bir qatorda Pavel Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi.

Bu yerda dastlab O.Tatevosyan, V. Podgurskiy, M.Shchurovskiy, R.Ahmedov, A.Krivosos, N.Qo'ziboyev, pedagogika institutida Yu.Yelizarov, M.Saidov, T.Oganesov, V. Yurovskiyalar tasviriy san'at asoslaridan yoshlarga dars berishdi.

Ayniqsa, Rahim Ahmedov tashabbus ko'rsatib, ko'p mehnat qildi. Shijoatli olov qalbli bu inson keyinchalik butun umrini O'zbekiston tasviriy san'at maktabini tashkil topib , rivojlanishiga bag'ishladi. Samarali mehnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofotlari, orden, medallariga sazovor bo'ldi.

Rossiya Badiiy Akademiyasi Muxbir a'zosi, O'zbekiston Badiiy Akdemiyasini Akademigi professor Rahim Ahmedov institutida ijod laboratoriyasini, tasviriy san'at bilimlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashkil qildi.

Uning maqsadi yosh iqtidorli rassomlarni tarbiyalab o'qitish va O'zbekiston tasviriy san'atini rivojlantirishdan iborat edi.

Musavvirning "Ona o'ylari", "Tong", "Sora Axmedova" portreti, "Lola" portreti", "Oqtoshda bahor", "Surxondaryolik ayol", asarlarida jozibali ranglar vositasida o'zbek xalqining o'tmishi, ichki dunyosi, his-tuyg'u, orzulari o'z ifodasini topgan.

Rahim Ahmedov dastlab portret sohasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun g'oyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda, nafaqat uni tashqi qiyofasiga, ranglarni uyg'unligiga, balki uni chehrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi. Shuning uchun e'tiborini mehnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, qariyalar, o'spirin-yoshlarni obrazini yaratishga qaratgan edi.

"Cho'pon portreti" da tabiat bilan kurashib og'ir mehnatni yoshlikdayoq yelkasiga olgan 40 yillar avlodining taqdirini tasvirlangan. Cho'pon yigit qiyofasida sinchiklab qarayotgan nigohi gavda kompozitsiyasiga bog'lanib ketgan, tayoqqa suyalgan, qabargan qo'llari va suyalgan gavdasi jazirama oftobda fonida issiqranglarda o'z yechimini topgan. Portret kompozitsiyasini asosiy mavzusi bir inson obrazidir.

Kattalarga taqlid qilib boshiga qiyiqcha o'ragan og'ir mehnatni orqalagan, pushti ko'ylakdagi o'spirin bola tasvirlangan. Bu ajib asar hozirda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida avaylab saqlanmoqda.

1956 yili Rahim Ahmedov qishlog'ida, ikki o'g'li hamda tumush o'rtog'i frontdan qaytmagan, mehnatda qaddi bukilmagan mardona keksa ayol portreti, "Ona o'ylari" asarini yaratdi. Ayol ko'pincha qariyalarga xos o'tirar, xayolga cho'mar edi. Ayol kechinmalari, onadan yosh yetim qolgan Raxim Axmedovning bag'rini to'lqinlantirib, unga mehr, chuqur hurmat uyg'otgan.

"Ona o'ylari" portreti kompozitsiyasida, figura biroz oldinga chiqqan. Yong'oq daraxti yonida yostiqqa suyanib tizza ko'ziga qo'l panjalarini saranjom - qo'yib, xayolga cho'mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jihatidan klassik mavqeiga ega, juda muvaffaqiyatli topilgan. Ayol yuzidagi chuqur ruhiy holatni, uning g'amgin yuzidagi katta yorug' ko'zlarida, mehnatda toblangan yuz chehrasida haykalga xos o'z ifodasini topgan.

Gavda "siluet" aniq, yengil ranglardagi manzara fonida, ko'k, binafsha, pushti, yashil, sarig' ranglarda shiddatli mahorat bilan tasvirlangan.

"Hozirgi davrda maishiy janrli portretga ko'proq ahamiyat berish kerak" der edi Rahim Ahmedov, chunki insonni tabiiy sharoitda, mehnat jarayonida ichki kechirmalarini ishonarli chuqur ifodalab berish sharoiti mavjud.

Ranglarni maftuni bo'lgan Rahim Axmedov ko'p zamondoshlari qatori 1959-yil "Surxondaryoli qiz" portretini yaratdi.

Sariq ranglar fonida u boshiga oq ro'mol o'rab o'tirgan, yuzlari quyoshda toblangan bug'doy rang ayol obrazini yaratdi.

Egnidagi libos qizil-zarg'aldoq, dekorativ ranglarda bo'ynidagi yaltiroq kumush tangalar, tumorlar o'ziga xos uslubda tasvirlangan.

Rahim Ahmedov bilan bir qatorda Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutida Chingiz Axmarov, Ne'mat Qo'ziboyev kabilar yoshlarni tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shdilar .

Muxtor Saidovni "Askiya" asarida paxta dalasi manzarasi yog'och karovatda dam olayotgan paxtakorlar asar ishtirokchilaridir. Kompozisiya markazida qo'lida piyola ushlagan qariya, navbatdagi hazil musobaqa g'alabasidan so'ngi, yuzidagi kulgi, iliq chehra, ro'parasida hazildan yutqazib o'zini noqulay holatda sezib o'tirgan raqib tasvirlangan . Xushchaqchaq hazil kulgidan o'zini tutolmay o'tirgan atrofdagi odamlar har xil holatlar tasvirlangan. Tomoshabinni e'tiborini o'ziga qaratgan chol figurasi kartinada asosiy bog'lovchi - kompozisiya markazini tashkil etadi . Har bir tipaj o'ziga xos psixologik holatda jozibali iliq-tillarang koloritda ifoda etilgan.

V. Jmakinning "Paranji tashlagan ayol" kartinasi ko'p figurali monumental kompozisiya asarida dramatik holat tasvirlangan. Asar mazmuni yaxlit kompozisiya yechimi chuqur psixologik asosda ko'rsatilgan .

Yorug' oftobli ko'chada bo'layotgan tarixiy dramatik voqea ifodalangan. Kompozisiya markazini paranji tashlab salobatli turgan o'zbek ayoli tashkil etadi .

Muallif kelajakka intilgan ayol obrazini, eski tuzum vakillariga, ruhoniylar kontrast holatda qarama-qarshi qo'ygan .

Vasiliy Ivnovich Jmakin kartinada "tipaj"lar obrazini, ularning ruhiy munosabatlarini, ularning liboslarini kontrast ranglarda ustalik bilan tasvirlab bergan.

1955 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida Badiiy grafika fakulteti tashkil topdi. Bu yerda dastlabki yillarda Yusuf Yelizarov, Muhtor Saidov, Malik Nabiyeu yoshlarga tasviriy san`at asoslarini o`rgatishdi, Respublikamiz maorif sohasiga yosh rassom-o`qituvchilarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ko`plab ijodiy asarlar yaratishdi.

Moskvadagi Surikov nomidagi rassomchilik institutida akademik I.Grabar, S.S.Gerasimov qo`lida ta`lim olgan Yusuf Yelizarovning ijodi dastlab portret sohasida boshlanib, shakllandi.

Uning "Paxtakor qiz", "Kabutar ko`targan qiz", "Onalik" asarlarida, rassomning kolorit, nozik ranglar ko`rish kabi yaxshi xislatlari namoyon bo`lgan.

"Kabutar ko`targan qiz" ochiq havoda (planerda) bajarilgan. Toklar soyasida o`tirgan yosh o`zbek qizchasi obrazi namoyon bo`lgan yumshoq tabassumli chehrasi aks ettirilgan. Chambarak qilib o`rilgan qora sochlari, iliq yengil qarashlari, uning erkin holatda o`tirishda o`ziga xos xarakter ifodasini beradi, uyning devoriga tushgan yorqin oftob nuri, hovlidagi yashil maysa fonida bayram libosidagi qizning ruhiy holati jozibali tarzda tasvirlab berilgan. Yuzidagi iliq, libosdagi sovuq reflekslar, rassom tasavvuridagi go`zal, haqqoniy ifodani namoyon etib turadi.

Abu Rayhon Beruniy obrazi tasviri uning qomusiy olim va mutafakkir inson ekanligi, uzoq vaqt davomida mashaqqatli ijodiy mehnat qilish, alloma yashagan davrni yaxshi o`rganish, bir necha bor eskiz va rang lavhalarni ishlash natijasida yuzaga keldi.

Malik Nabiyeuving "Beruniy portreti" birinchi bor 1950- yilda, ikkinchi varianti 1974 yili allomaning 1000 yilligi o`tkazilishiga bag`ishlangan tanlovda g`olib chiqdi. YuNESKO tomonidan chaqiriladigan "Kur'er" jurnalining 1974 yil iyul soni muqovasida bosilib chiqdi va dunyo xalqlariga borib yetdi.

Rassom asarda ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan tarixiy shaxs, insonparvar olim Abu Rayxon Beruniyning butun salobatini, nufuzini gavdalandiradi. Kartinning keyingi planlaridagi kitoblar, tibbiyot, ilm fanga bog'liq bo'lgan buyumlar, ayniqsa portret kompozitsiya yechimidagi sharqona tahlil, yuz qiyofasidagi chehra chizgilari, ruhiy holati mujassamlashib yaxlit Beruniy obrazini, uning qomusiy olim mutafakkir inson ekanini yanada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Malik Nabiyev Sohibqiron Amir Temur portretini 1995-96 yilda yaratdi. U davlat tanlov komissiyasi tomonidan umum namuna sifatida qabul qilindi.

Shunday rassomlardan yana biri Vladimir Burmakin. Ijodiy diapazoni keng bu rassom hayot mazmuni, bo'lgan voqealarini chuqur anglagan holda o'z kompozitsiyasida asar mohiyatini jozibali ochib berishga erishadi va tomoshabinni o'ziga rom etadi. "Xamon o'tayotgan ayollar", "Boysun ayoli" asarlarida mukammal kompozitsiya yechimi, o'ziga xos boy rang koloriti o'z ifodasini topgan. Latofatli yosh ayol, Ona obrazini yaratish, mavzuni chuqur anglash natijasidir.

Uning "Daraxt haqidagi poema" kartinasida sar qahramonlari, ikki yoshning hayot taqdiri tasviri tabiat qonunlari to'g'risida falsafiy fikr yurgizishga undab tomoshabinni o'ylantirib qo'yadi.

Ikki yoshning ezgu his - tuyg'ularni aynan tabiat qo'ynida bir-biriga izhor etishi holati, daraxt oldida kompozitsiya jihatidan falsafiy - lirik yechimini topgan.

70-yillari Moskva Leningrad badiiy o'quv yurtlarini Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov kabi yosh iqtidorli rassomlar bitirib keldilar. Ular talabalik yillaridayoq badiiy ko'rgazmalarda qatnasha boshladilar. Javlon Umarbekov, aslida sobiq Butunittifoq kinomotografiya institutini tamomlagan bo'lsada, tasviriy san'atdagi ijod yo'lini portret, maishiy, tarixiy janrda boshladi.

Uning dastlabki "Alisher va Xusayn Boyqaroning yoshligi" asari sharq miniatyura an'analari uslubida yaratilgan. Ikki yosh o'spirinning muloqoti, lirik-poetik holati kompozitsiya yechimida ustalik bilan tasvirlangan.

Kartina uygʻonish davri tasviriyl sanʼat ustalari asarlaridan taʼsirlanib yaratgan. Shuningdek uning "Tafakkurli inson" asari maqtovga sazovordir.

Asarda inson, koinot taraqqiyoti, abadiyat va zamon haqidagi mavzu asos qilib olingan. Bu asar muallifning ijod choʻqqisi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Murakkab kompozitsiya yechimida, estetik did, yuqori malakaviy saviya, mahorat, chuqur falsafiy fikrlash oʻz aksini topgan .

1986-yili Leningradda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston tasviriyl sanʼati badiiy koʻrgazmasida Milnikov tomonidan yuqori baholandi.

Bahodir Jalolov Leningrad rassomchilik - ijodiy maktabini chuqur egallagan rassomdir. U oʻz asar personajlarini sodda tabiiy holda atrofga, kasbga munosabatni, ichki his-tuygʻularini, maʼnaviy boyligini ifodalaydi.

Rassomning salohiyati oʻtkirligi "Avtoportret", "V.Axunov", "Komil Yormatov" portretlarida oʻz ifodasini topgan . Asardagi maromiga yetgan qalam tasvir, chiziqlar, kompozitsiya tuzish mahorati, uni yuksak saviyali bilimidan dalolat beradi. Uning mazmuni kompozitsiya yechimida monumental yoʻnalish asosiy vosita boʻlib, uygʻonish davri rassomlarining badiiy tamoyillariga asoslangan.

U mahobatli rangtasvir hamda dastgohli rangtasvir sanʼati asoslarini professor Andrey Andreyevich Milnikovdan oʻrgandi. Keyinchalik mukammal akademik qalamtasvirga asoslanib, Salvador Dali, Albrect Dyurer ijodi va jahon badiiy meoslarini oʻrganib, badiiy tafakkurni olgʻa siljitgan.

Uning "Niyatga yetish", "Folbinlik", "Metamorfoza", "Ikkilanish", "Yaratuvchi - inson", "Ikki asos kurashi" asarlari turkumida hayotni falsafiy muammolari, insonning yashash uchun kurashi, undagi maʼnaviy dunyoqarashining shakllanishi kabi masalalarni olgʻa suradi. Uni tasavvurida Uygʻonish davri rassomlarining gʻoyalari chuqur iz qoldirgan.

U Monumental sanʼat asarlari, Yevropa va sharq "progressiv" ijodkorlar yoʻnalishida bajarilgan asar sifatida boʻlajak rassomlarni monumental kompozitsiya tuzilishini oʻrganishda asosiy dastur, vosita boʻlib xizmat qiladi.

Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tkazib unda dunyoqarashini shakllantiradi. Tasviriy san'at insonda hayotdagi ko'rsatgan jasoratini, fikr va ichki xisssiyotlarini aks ettiradi.

2.2. Zamonaviy rangtasvirda maishiy janrning tutgan o'rni

Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko'pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan maishiy voqealar o'sha davrlarda yashagan odamlarning hayoti bilan tanishtiradi. Bu janr XV-XVII asrlarda Yevropa milliy maktablarida gullab yashnadi. Bunga misol qilib P.Breygelning "Kretyanning to'yi" kartinasini keltirish mumkin. Bu kartinada xalq bayramining go'zal va quvnoq sahnalari o'z ifodasini topgan.

Flamand P.Rubens o'zining asarlarida qishloq bayramlarini realistik ravishda tasvirlaydi. Golland rangtasvirchilari (G.Gerborx, Ya.Vermer) jamiyatning turli qatlamlari hayotini mehr-muhabbat bilan tasvirlaganlar. XVIII asr Frantsuz rassomlari A.Vatto, F.Bushe, J.B. Sharden, O.Fragonarlar ham maishiy janrda asarlar yaratganlar.

Keyinchalik rassomlar bo'layotgan voqealarni oddiy qilib tasvirlamasdan uning ichki mohiyatini ochib berishga harakat qila boshladilar. Jamiyat hayotiga tanqidiy munosabatda qarash frantsuz rassomlari O.Dome, G.Kurbe va rus rangtasvirchilari A.Venetsianov, G. Myasoyedov, V.Perov, I.Repin, P.Fedotov va sayyor rassomlar ijodida o'z aksini topdi. Rus rassomi B. Kustodiyev o'z kartinalarida savdogarlar hayotini turli qirralari bilan tasvirlagan.

Maishiy janr O'zbekiston rangtasvirchilarining ham kuchli jihatlaridan biri hisobalanadi.O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib rangtasvirchilar sulolasini vujudga keltirdi.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlaridagi formalizm yo'lidan qutulib, xayotni realistik tasvir uslubiga qaytadi. U ko'p asarlarida inson obrazini, yangi xayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 20-30-yillarda yaratgan «Choyxonada», «Eski shaxar choyxonasi», «Anorli choyxona» asarlari shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suhbat qurish, hayot muammolari bilan o'rtoqlashishga, yaqin muloqotda bo'lish uchun muhim ma'naviy ehtiyoj makonidir. U, shuningdek, Respublikaning yangi qurilish ob'ektlarida bo'lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda», «Xosil» triptix, «Sbor ekskavatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarlarini yaratdi. U o'z asarlarida mehnatkash inson hayoti, uning mehnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.

O'zbek tasviriy san'atining siymolaridan biri Bahrom Xamdamiydir. U 1935 yilda Toshkent rassomchilik texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Rassom A. Volkov, M. Kurzin, O. Tatevosyan kabi ajoyib rassom - pedagoglardan ta'lim oldi. O'sha vaqtda tuzilgan A. Volkov rahbarligidagi ijodiy brigadalardan biriga Bahrom Xamdamiy ham kirgan edi. Brigadada u Tansiqboyev, N. Koraxon, A. Podkovrov, A. Toshkanboyevlar bilan do'stlashib Respublika bo'ylab ijodiy safarda bo'ldi, yig'ilgan materiallar kelajak ijodiga zamin yaratdi. Hayotdagi o'zgarishlar, xalqning mehnatdagi muvaffaqiyatlari rassomni ijob qilishga ilhomlantirardi. Har bir kartinani yaratishda sidqidildan, muhabbat bilan yondoshardi. 1936-38 yillarda yaratgan «Choyxonada oqshom», «Sevimli qo'shiq», «Tasvir to'garagi» kabi kartinalari shu mehnatning samarasidir. 1936 yilda bir guruh, yosh rassomlar qatori u Moskva va Leningraddagi Davlat Tretyakov galereyasi, Pushkin nomidagi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Davlat Ermitaji, Rus muzeyida rus va G'arbiy Evropa san'ati durdonalari bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi. Rassom 1939-yilda «Ish tugaganda» deb atalgan kartinasini yozib tamomladi. Bu asar 1940 yil Respublika ko'rgazmasiga qo'yildi va mutaxassislar tomonidan o'zining badiiy

jihatdan O'zbekiston rassomlarining maishiy mavzuda yaratgan asarlari ichida birinchi va eng yaxshi asar sifatida tan olindi.

2.3. Maishiy janrni takomillashtirish muammolari

O'zbek tasviriy san'atidagi maishiy janrni eng avvalo rassomlardan L.Bure, A.Isupov, O.Tatevosyan, A.Volkov, I.Kazakov va boshqa rassomlar rivojlantirdilar. Maishiy janrda yaratilgan rangtasvir asarlarida o'zbek xalqining hayoti o'ziga xos tarzda tasvirlangan.

Ayniqsa rassom A.Volkov o'z asarlarida milliylik va milliy an'analarni juda katta ehtirom bilan tasvirlagan. Uning asarlaridan "Qizil choyxona", "Choy", "Eski shahar choyxonasi", "Sandalda" kabi asarlari g'oyat go'zal yaratilgan.

Yana bir rassom P.Benkov o'z asarlarida o'zbek xalqining hayotini yangi qirralarini ochib berishga harakat qildi. Uning "Buxoro bozori", "Ko'cha arizachisi", "Uzum bozori", "Sabzavot bozori" kabi asarlari o'zida sharq xalqlari hayoti, odamlar harakatining turli-tuman ritmini, milliy kiyimlarning go'zalligini, bozorlarning to'kin-sochinligini aks ettirgan.

Rassomlardan M.Nabiyev, T.Oganesov, M.Saidov, R.Axmedov, B.Boboyev, V.Burmakin, J.Izentoyev, A.Ikromjonov, Yu.Taldikin, R.Xudoyberganovlar ham janrli kartina yaratish sohasida mehnat qildilar.

Keyingi davrlarda maishiy, tarixiy va batal janrlari orasidagi chegaralar yo'qolib ketdi. XX asr maishiy janrining rivojlanishi murakkab va turli-tuman yo'ldan ketdi. Bu davr kartinalariga psixologik nyuanslar va o'zgaruvchan voqealar xosdir. Kartinalarda simvolik mazmun ham ochib berilgan (P.Gogen, V.Borisov - Musatov, K.Petrov - Vodkin) shu bilan birga oddiy hayotiy voqealar ham bo'rttirib, qahramonona ko'rinishda beriladi. (B.Ioganson, A.Deyneka, A.Plastov).

Maishiy va tarixiy janrlarda personajlarning o'zaro aloqasi juda muhim bo'lib, obrazlar rang yordamida yaratiladi. Biz avvalo kartinaning syujetiga, nima tasvirlaganiga e'tibor beramiz, keyin esa uning bo'yoqlari, qanday ishlangani va ishlanish uslubiga e'tiborni qaratamiz. Chunki kartinaning kayfiyati, elyutsional

ta'siri undagi ranglarning qanday tanlanganiga bog`liq. Kartinaning koloriti quvnoq va g`amgin, tinch va qayg`uli, sirli va aniq bo`lishi mumkin.

III-bob. Maishiy janrga oid ijodiy asar yaratish

3.1. Mavzu asosida badiiy asar homaki nusxasini ishlash

Kompozitsiyaning badiiy amaliyoti va ravnaqi nazariyasi davomida shakllanib boradigan o'z qoida-tartiblari mavjud. Bu masala keng miqyosli murakkab masala bo'lib, mavzuli kompozitsiyalar qurishda ko'mak beruvchi, g'oyani badiiy asar darajasiga ko'taruvchi, bir so'z bilan aytganda , kompozitsiya ishlash qonuniyatlari, qoida, tartib va uslublari haqida so'z boradi.

Biz asosan realistik asarning yaratilishiga taalluqli bo'lgan jarayonni kuzatamiz. Realistik san'at faqatgina borliqni tasviriy ifodalabgina qolmasdan, balki rassomning his-hayajonli tuyg'usi orqali oddiy narsalarga go'zallik baxshida etiladi, ya'ni olamni estetik kashf etadi.

Albatta rassomdan uning badiiy-ijodiy mahoratini ilg'or g'oyalarga intilishini hech qanday qonunlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Iqtidorli rassomlar tabiatdan kompozitsiya yechimlarini his etish , sezish , fikrlash , ko'rish orqali topishlari mumkin. Lekin kompozitsiyani rivojlantirish ustida , uni amalda tatbiq etish , albatta ko'p mehnat talab etadi.

Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoida va usullari o'zaro bog'liq bo'lib , kompozitsiya ustida ishlash jarayonida unga hamma holatdagi harakatlar ta'sir etadi. Ilg'or g'oya maqsadlarini ishonarli , ta'sirchan ifodalashda asar yaxlitligiga amal qilgan holda va badiiy san'atning barcha imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish talab etiladi.

Badiiy asar yaratishning turli usul va qonuniyatlari , uning qurilmasi bilan tanishib chiqar ekanmiz , bunda kompozitsiyani qonuniyat va usullar asosida ifodalash ekanligini ilg'ab olamiz.

Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi kontrastlar orqali, ya'ni yorug'lik va qorong'ulik , ruhiy ko'tarinkilik va tushkunlik , sahiylik va baxillik , quvnoqlik va g'amginlik , yangilik va eskilik , sokinlik va harakatlar orqali ifodalangan bo'lishi mumkin.

Kontrast o'zining universal imkoniyatlari bilan yorqin va ma'nodor san'at asarlari yaratishda beqiyos asqotadi.

Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir traktati qomusida" kattaliklar kontrastidan , jumladan baland-past bilan, katta-kichik bilan , to'liq nimjonlik bilan, shuningdek, turli sirtlar , ashyo , hajm , shakl, tekisliklar va shu kabilardan foydalanish kerakligini aytib o'tadi.

Tus va rang kontrastlari rangtasvir , grafika va boshqa yo'nalishdagi san'at asarlarini yaratishda imkoniyat omillarining ajralmas bir qismidir.

Yorug' ob'ekt to'q fonlarda va aksincha , to'qlari yorqinlik ichida ko'zga yaqqol tashlanadi.

V.Serov mo'yqalamiga mansub "Shaftoli bilan qiz" kartinasida bu jarayonni yaxshiroq kuzatish mumkin. Qizning bug'doyrang yuzi yop-yorug' deraza fonida to'q dog' bo'lib ajralib ko'rinadi. Qizning ko'rinishida sokinlik bo'lsa-da , uning yuzida hayot barq urmoqda , go'yo u hozir tabassum qiladigandek , go'yo nigohini olmoqchidek va qandaydir harakat qilmoqchidek holat yuz bermoqda.

Inson holatini o'ziga xos tabiiyligi , bir joyda qotib qolmasdan , harakatli faoliyatni tasvirda ifodalab beruvchi bunday portretlar oldida biz albatta hayratlanamiz.

Kompozitsiyada yaxlitlikka va g'oyaning hissiyotlar ta'sirchanligiga erishish uchun maqsadni amalga oshirish choralarini va shuningdek ,o'ziga xos interer yoki manzara tanlab topish zarur. Shu maqsadda, Bitiruv malakaviy ishimizni yoritishda qadimdan meros bo'lgan ustoz-shogird an'anasini yoritib berishni lozim topdik. Aynan tasviriy sa'atning ajralmas qismi bo'lgan amaliy san'atga oid badiiy asar yaratish g'oyasi keldi. Jumladan, ixtiyoriy bir ustani o'z shogirdiga avloddan avlodga o'tib kelayotgan san'at sirlarini o'rgatish jarayoni tasvirini ishlash biz uchun asosiy maqsadga aylandi.

Bu sohada izlanishlarimiz kulolchilik ustaxonasida nihoyasiga yetdi . Asar yaratish jarayonida kulolchilik ustaxonasida kuzatishlar olib bordik. Loydan yasalgan ajoyib buyumlar, kulolning oddiy tuproqdan san'at asari yaratish jarayoniga befarq o'tib ketishning iloji bo'lmadi.







3.2. Homaki nusxa va qoralamalar asosida asar yaratish

Shunday qilib , kompozitsiyaning yaxlitligi rassomning iqtidoriga bog`liq , u ikkinchi darajali qismlarni asosiy elementlarga o`zaro bog`lamog`i , shuningdek, kompozitsiyada ikkinchi darajali ko`rinishlarning o`zaro mutanosibligini o`rnatib, asosiyga bo`ysundirishi kerak. Demak, kompozitsiyaning ikkinchi darajali elementlari eng asosiy “ovozini” bo`g`ib , ilgari sakrashlariga yo`l qo`ymaslik kerak. Har bir qism o`zining zarurligi bilan muallif g`oyasini biror yangilik tomon boyitmog`i zarur.

Kompozitsiyaning biror bir bo`lagini yaxlitlikka zarar yetkazmasdan olib tashlash yoki almashtirish mumkin emas. Shuningdek bo`laklar bir butunlikka putur yetkazmasdan o`zaro o`rin almashtira olmaydilar. Kompozitsiya yaxlitligiga ziyon keltirmasdan biror yangi elementni kiritib bo`lmaydi.

Kompozitsiyaning qonun va tuzilmalarini bilmoq-kartina ustida ishlashda ajralmas qurol bo`lib xizmat qiladi.

Ayrim hollarda rassom o`z g`oyasini mukammalroq yoritib berish maqsadida kompozitsiya qonuniyatlarini ongli ravishda buzib ishlatadi va ijodiy yutuqlarga erishadi.

Kompozitsiya qoidalariga quyidagilarni ajratish mumkin:


- harakat tasvirini berish (dinamika) ;
- harakatsizlik ;
- sokinlik tasviri (statika) ;
- oltin kesishuv (uchdan bir).

Kompozitsiya usullari ritm , simmetriya , assimetriya , kompozitsiya qismlarining muvozanatliligi va kompozitsion markaz ko`rinishini bo`rttirib ko`rsatishlarga ajratish mumkin.

Kompozitsion vositalarga o`lchov (format), kenglik , kompozitsion markaz , muvozanatlik , ritm , kontrast , yorug` va soya , rang amaliy bezak (dekorativnost) dinamika va statika , simmetriya va assimetriya , ochiq va yopiq , umumiyliklar

kiradi. Shunday qilib, kompozitsion ko`rinishlarni ifodalash uchun zarur bo`lgan qoidalar va usullar turli tumandir.

Izlanishlarimiz natijasida ko`plab eskizva qoralamalar ishladik. Bularni ichida Andijon viloyatidan bo`lgan ustoz Mirzabahrom Abduvahobov o`z shogirdlariga kulolchilik sir asrorlarini o`rgatayotgan jarayoni e`tiborimizni tortdi. Ustozni dastlab, shogirdi bilan yasalgan ko`zalarga naqsh berish jarayonini eskizini ishladik. So`ngra, ikki shogirdi bilan xum pishirish jarayonini qoralamalar qildik. Eskiz va qoralamalar ko`ngildagi natijani bermadi. Shunda ustozning kulolchilik charxida shogirdining qo`lidan tutib ko`za yasayotgani jarayoni e`tiborimizni tortdi. Bu ajoyib holatni darrov qog`ozga tushurdik. Ko`zlangan jarayonni vanihoyat topganimizdan sevindik. Ustozning yillab qilgan mehnati orqasidan sochiga oralagan oqlari, yuzlaridagi ajinlari , samimiy tabassumi, qotmadan kelgan yuz qiyofalari, homaki tasvirdan ijodiy asar yaratish bosqichiga o`tishimizga turtki bo`ldi. Ijodiy asar yaratish jarayonida avvalambor uning o`lchamlari nisbatini to`g`ri topish lozim.bizning asar ikki qiyofa bo`lganligi sababli dastlab 60x80 o`lchamdagi formatga eskiz bajardik. Bu holatda orqa fonga ba`zi detallar ishlash uchun format kichiklik qildi. Keyin esa 100x80 o`lchamni tanlab oldik. Bu holatda kompozitsiyamizni yanada boyitish maqsadida yana bir shogirdini orqa fonda ularni kuzatib turgani jarayonini tasvirladik. Uch kishilik kompozitsiya uchun ayni shu o`lcham munosib bo`ldi. Ijodiy asarni matoga tushurish jarayoniga o`tdik.



3.3. Badiiy asarning o`ziga xos jihatlari

Simmetrik kompozitsiyalarning barcha qismlari o`zaro tenglashtirilgan, asimmetrik kompozitsiyada esa tenglashtirilgan va tenglashtirilmagan holatlarda bo`lishi mumkin. Katta yorug` dog`ni kichik to`q rang bilan tenglashtirish mumkin. O`lchov jihatidan kichik bo`lgan bir necha dog`larni katta dog` bilan tenglashtirish mumkin. Talaygina tenglashtirish usullari mavjud. Ular qism kattaliklari , tuslar va ranglar yordamida tenglashtiriladi. Tenglashtirish u yerdagi ishtirok etayotgan qomatlar va ular orasidagi masofalarga ham aloqadordir. Maxsus mashqlar orqali o`z kompozitsiyalarimizda muvozanatni , katta –kichik balandliklarni , yorug` va to`q , turli siluet va rang dog`larini his etib o`zaro tenglashtirishni o`rganib olamiz

Assimetriyali kompozitsiyalarda , ba`zida tenglik mutlaqo bo`lmaydi, chunki fikrlash markazi kartina qig`og`ida joylashgan bo`lishi mumkin. Chizmatasvirning oynadagi aksini ko`rganda bizning fikrimiz o`zgaradi. Bu ko`rinishning o`ziga xosligi va uni kompozitsiyada tenglik qidirayotganda hisobga olmoq zarur.

Kompozitsiya qonun-qoidalari, usullari rassomlarning boy tajribalari va ijodiy mahoratiga asoslangan. Albatta kompozitsiya yaratish texnologiyasi joyida turgani yo`q, u doim rivojlanishda bo`lib, rassomlar ijodiy amaliyoti bilan yanada boyib bormoqda. Biz ham kompozitsiya ishlash jarayonida kompozitsiya markazini to`g`ri joylashtirish maqsadida, kulol va uning shogirdini o`rtaga joylashtirdik. Kulolning gavda tuzilishi shogirdining gavdasiga nisbatan kattaroq bo`lganligi sababli kompozitsiya muvozanatini saqlash uchun yana bir shogirdi ularni kuzatib turgani jarayonini qo`shib tasvirlashni lozim topdik. Ayniqsa, ustozni shogirdining qo`lidan tutib unga mehr bilan o`rgatayotgani juda ta`sirli hodisa bo`ldi.

Kompozitsiyaning ayrim usullari mumtozlikka aylanib bormoqda, ularning o`rinlariga yangilari kelmoqda, hayot esa ular oldiga yangi maqsad va vazifalar qo`ymoqda.



Xulosa.

Tasviriy san`at o`sib kelayotgan yosh avlodni siyosiy, ma`naviy, g`oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go`zallikni seza bilishda, san`at asarlarini o`rganishda, ulardan bahra olishda, izlanuvchanlik, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o`rta ta`lim maktabalarida, ixtisoslashgan san`at maktablarida , san`at va madaniyat kollejlari, shuningdek, oliy o`quv yurtlarida olib boriladigan qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya dars mashg`ulotlarining bu borada o`rni beqiyos darajada. Ammo bugungi kunga kelib ushbu dars soatlari kamayib borayotgani achinarli hol. Ayniqsa, ixtisoslik fanlarining asosi bo`lgan qalamtasvir va rangtasvir darslari haftasiga 3-4 soatnigina tashkil qilishi juda ham achinarli holat. Kompozitsiya darslari esa 3-kursda bir semester davomida 76 soat o`tiladi holos. Bir ijodiy asarni boshlab , nihoyalash uchun esa kamida 20 soat o`quv auditoriya soati ajratilishi lozim . Bu soatlarning ketma –ket bir vaqtda o`tilishi ish unumdorligining asosiy omili hisoblanadi. Biroq , hafta davomida atigi 4 soat bir asar ustida ishlab, qolgan vaqt davomida 10 dan ortiq ixtisoslikka daxli bo`lmagan fanlarni o`qitilishi ham talabani erkin ijod qilishiga monelik qiladi

Bundan tashqari maishiy janrda ijod qilib kelayotgan yoxud ijod qilib o`tib ketgan mashhur rassomlar hayoti va ijodiga bag`ishlangan maxsus o`quv qo`llanma yoki xujjatli filmlar yaratilmaganligi juda ham achinarli holatlardan hisoblanadi. . O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta`lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o`tkazish tartibini takomillashtirish to`g`risida" 2017 yil 16- noyabrdagi PQ-3389-son qaroriga muvofiq oliy ta`lim muassasalarining bakalavriatiga o`qishga qabul qilish tizimini takomillashtirish , abituriyentdan ijodkorlik va individual mahorat talab etiladigan sohalaridagi ta`lim yo`nalishlariga qabulni adolatli , xolis va shaffof o`tkazish orqali puxta bilimga ega bo`lgan iqtidorli yoshlarning o`qishga qabul qilinishini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27-iyuldagi "Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta`lim yo`nalishlariga kirish test sinovlarisiz ,

kasbiy(ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida " gi 588- sonli qarori qabul qilindi.³ Bu qarorning qabul qilishi ushbu muammolarimiz bartaraf etilishining boshlanishi bo'lsa ajab emas.

Bundan tashqari, Namangan viloyatida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida bugungi kundagi ijodiy asarlarning aksariyati natyurmort va manzara janrlarida yoki sof portret (yakka bir kishilik) janrida ishlanganiga guvoh bo'ldik. Mavzuli kompozitsiyalarning deyarli yo'q ekanligi ham bizga ushbu sohada bir oz mushkulliklarga duch kelishimizga sabab bo'ldi. Maishiy janrga oid olib borgan tadqiqot ishimiz ilmiy qo'llanmalar va ushbu sohadagi manbalardagi kamchiliklarni bartaraf qilishga qo'shgan hissamiz deb hisoblaymiz. Qolaversa, uch kishilik kompozitsiya asosiga qurilgan ijodiy ishimiz fakultetimiz talaba yoshlariga ko'rgazmali qurol sifatida asqotadi degan umiddamiz.

Olib borgan tadqiqot ishimiz jarayonida duch kelgan ayrim muammolarga asoslangan holda biz kelajakda olib borilishi mumkin bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun, qolaversa joriy o'quv tizimiga o'zgartirish kiritish maqsadida quyidagi taklif va mulohazalarni tayyorladik:

- Maishiy janrga oid darslik va o'quv qo'llanmalar nashr qilinishi zarur;
- Oliy o'quv yurtlarida ixtisoslik bloki fanlariga e'tiborni qaratish zarur;
- Rangtasvir va kompozitsiya o'quv predmetlari soat hajmini ko'paytirish kerak;
- Maishiy janrda ijod qilib kelayotgan rassomlar ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishi lozim;
- Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda o'quvchi-yoshlar uchun yangi avloddagi elektron darslik, o'quv qo'llanma va filmlar yaratish kerak;
- Mahalliy rassomlar ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish lozim;

³ Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27-iyuldagi "Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlarisiz , kasbiy(ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida " gi 588- sonli qarori

- Muqaddam mavjud boʻlgan va hozirda oʻquv rejalaridan olib tashlangan " Muzey va arxeologiya amaliyoti" ni joriy qilish maqsadga muvofiq boʻlar edi;
- Oliy oʻquv yurti talabalari uchun har bir semester davomida kamida bir marotaba rassom ustaxonalari va koʻrgazma zallari, muzeylarda darslarni tashkil qilinishi ham maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizni nihoyasiga yetkazish chogʻida soʻnggi soʻz sifatida, oliygoh ostonasiga ilk qadam qoʻygan kunimizdan boshlab bizga ota-onamizdek gʻamxoʻr va mehribon, jonkuyar, oʻz kasbiga sidqidildan jon fido etgan aziz va muhtaram ustozlarimizga yetkazgan taʼlim-tarbiyalari uchun chin dildan minnatdorchilik bildiramiz. Ular bildirgan ishonchni albatta oqlaymiz. Ularga munosib izdosh boʻlishga harakat qilamiz. Eʼtiboringiz uchun raxmat!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O'zbekiston. 1999. 62 bet.
3. “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4306-son . 2019 yil . 3- may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. BS. Abdirasulov, B. Boymetov, N. Tolipov. Tasviriy san`at. –T.; 2006
6. N. U. Abdullaev. San`at tarixi. Ikki jildlik 2/1-tom. –T.; 2001
7. Abdullayev. N..O'zbekiston manzara rangtasviri.-T.,1973 yil
8. Abduraxmanov F.Kompozitsiya asoslari-T.,2003.
9. Abdullayev N. San`at tarixi-T.,2007.
10. Abdullayev. N..O'zbekiston manzara rangtasviri.-T.,1973 yil
11. Nabiyeu A. «Tarixiy o'lkashunoslik». T. 1977 йил
12. Mahmudov T.O'zbekiston tasviriy san`atida inson omili-T.,1979 yil
13. Mahmudov T.O'zbekiston rangtasvir estetikasi-T.,1983 yil
14. Azimova. B, Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. - Toshkent; O'qituvchi 1984 yil.
15. Hasanov R. Maktab tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. – T., 1986 yil
16. Oyidinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. – T.,1997 yil
17. Эгамбердиев .А. Жанровая живопись Узбекистана -T.,1998.
18. O'zbekiston san'ati (1991 – 2001 yillar). Ilmiy muharrir A. Hakimov – T., 2001.
19. Qo'ziyev T, Egamov A va boshqalar. Rangtasvir.- T., 2003.
20. Abduraxmanov F.Kompozitsiya asoslari-T.,2003.
21. Hasanov R. Tasviriy san'at va badiiy mehnat – T., 2003.

22. Oripov B. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi –T., 2004.
23. Hasanov R. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi – T., 2004.
24. Egamov A. Kompozitsiya asoslari – T., 2005.
25. Abdullayev N. San`at tarixi-T.,2007.
26. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. – T., 2009.

Хорижий тилдаги адабиётлар:

1. Б.В.Веймарн. Живопись молодых художников Узбекистана. –Т.; 1985
2. А.Эгамбердиев. Жанровая живопись Узбекистана. –Т.; 1989
3. М.Мирзарахимов. Проблемы композиции в живописи Узбекистана. Т.; 1989

Internet ma`lumotlari.

1. lex.uz
2. ziyouz.com
3. wikipediya
4. slayd.arxiv.uz
5. library.ziyonet.uz
6. arboblar.uz

Ilovalar

